

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.O.Baltabayeva, O.A.Komiljonova**

Franshizalarni ochish va ular bilan samarali ishslash - biznesni rivojlantirishning omili sifatida ..... 6

**A.Y.Toyirov S.R.Shodiyev**

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining o'rni ..... 9

**A.Y.Toyirov**

Hududiylar iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda infratuzulmaning o'rni ..... 16

---

FALSAFA**A.A.Qambarov**

Abdulla Avloniy o'zbek millatining ma'rifatparvar ziyolisi..... 21

**G.T.Kabulniyazova**

Uyg'onish davri falsafasining mashhur vakili Nikolay Kuzanskiyning panteistik ontologiyasi ..... 27

**X.N.Xolmirzaev**

Sun'iy intellekt tizimlarida ijtimoiy me'yorlar va inson qadriyatlarining ahamiyati..... 32

**S.S.Evato**

O'rta asr sharq faylasuflari ta'limotlaridagi gnoseologik va teologik qarashlarning qiyosiy tahlili.... 37

**I.A.Asatulloev**

Erix fromm ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida inson tabiat deformatsiyasi..... 40

**B.X.Tolipov**

Yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlantirishning falsafiy jihatlari ..... 46

**Sh.Q.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishning sinergetik strategiyasi ..... 50

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Axmadning ontoljik qarashlari..... 54

**L.K.Axatov**

Irfoniylar qarashlarning falsafiy mazmun-mohiyati (mutafakkirlar asarlarining tahlili asosida)..... 59

**J.A.Mamanov**

Yoshlarda ma'naviy madaniyatni yuksaltirishning milliy va umuminsoniy tamoyillari ..... 63

**I.I.Umrzakov**

Xalq musiqa ijodiga doir falsafiy-madaniy yondashuvlar..... 70

**Sh.A.Ismailov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari .... 74

**R.S.Raupova**

Abu Ali Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy qarashlarining mamlakatimiz rivojida tutgan o'rni ..... 78

**M.A.Rahmonova**

Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni ..... 84

**D.V.Vohidova, O.L.Berdiyev**

Turkiy tasavvufning buyuk namoyandası..... 92

**B.B.Dehqonov**

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik g'oyalalarining o'rni va ahamiyati ..... 96

**A.Z.Sharipov**

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi-yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma'naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar assosi sifatida..... 102

**L.B.Ikromova**

Zamonaviy o'zbek falsafasida gnoseologik muammolarning yoritilishi..... 107

**A.X.Amonlayev, M.Y.Sultonov**

Islam qadriyatlarida shaxs ma'naviyati haqidagi qarashlarning gumanistik mohiyati ..... 111



УО'К: 101.1

**YOSHLAR IQTISODIY FAOULLIGINI SOG'LOM AXLOQIY-IQTISODIY RAQOBAT  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI**

**ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ  
МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ЗДОРОВОЙ НРАВСТВЕННОЙ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ  
КОНКУРЕНЦИИ**

**PHILOSOPHICAL ASPECTS OF DEVELOPING YOUTH ECONOMIC ACTIVITY BASED  
ON HEALTHY MORAL AND ECONOMIC COMPETITION**

Tolipov Baxtiyor Xamitovich 

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'on'a filiali katta o'qituvchisi, f.f.n.

**Annotatsiya**

*Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faoulligini rivojlanirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faoulligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlanirishning deterministik asoslari, Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faoulligini sog'lom raqobat madaniyati asosida rivojlanirish istiqbollari o'rganilan. Shuningdek, yoshlar iqtisodiy faoulligini sog'lom axloqiy-iqtisodiy raqobat asosida rivojlanirishning falsafiy jihatlari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассмотрены теоретические и методологические основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане, детерминированные основы развития экономической активности молодежи в Новом Узбекистане на основе культуры здоровой конкуренции, перспективы развития экономической деятельности изучается молодежь Нового Узбекистана на основе культуры здоровой конкуренции. Также анализируются детерминированные основы развития экономической активности молодежи на основе культуры здоровой конкуренции.*

**Abstract**

*The article studies the theoretical and methodological foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan, the deterministic foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition, and the prospects for the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition. The deterministic foundations of the development of youth economic activity in New Uzbekistan based on a culture of healthy competition are also analyzed.*

**Kalit so'zlar:** yoshlar iqtisodiy faoelligi, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional, deterministik asos, sog'lom raqobat madaniyati.

**Ключевые слова:** экономическая активность молодежи, социальные закономерности, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, системно-функциональный, детерминистический базис, культура здоровой конкуренции.

**Key words:** youth economic activity, social laws, tradition and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systematic and functional, deterministic basis, culture of healthy competition.

**KIRISH**

Hozirgi davrda yoshlar iqtisodiy faoelligining axloqiy immanent xususiyatlarini o'rganmasdan turib natijaga erishish qiyin. Axloqiy qadriyatlar yoshlarning motivatsiyasining aks etishi, iqtisodiy faoliyatda boshqaruvchanlik xarakteridagi kuchli vositadir. Samarali axloqiy meyorlar, mezonlar va qadriyatlarning birdan bir vazifasi mavjud ijtimoiy institutlarningbarqarorligini ta'minlash, yangi paydo bo'luvchi axloqiy, iqtisodiy qadriyatlarni moslashtirishdir. Iqtisodiy sohada erkinlik berilishi, tadbirdorlik, ishbilarmonlik davlat himoyasida bo'lishi, uning huquqiy-meyoriy bazasi, o'z navbatida, axloqiy, madaniy qadriyatlarni o'zgarishiga kuchli impuls berishi tabiiydir. Shu sababli jamiyatning peshqadam kuchi bo'lgan yoshlar faol iqtisodiy inson sifatida iqtisodiy institutlarni rivojiga katta hissa qo'shmoqdalar.

## FALSAFA

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodiy faoliy faqarolik jamiyatining substansional elementi ekanligi M.Sharifxo'jayevning ilmiy ishida aks etgan bo'lib, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi axloqiy rivojlanish qonuniyati asosida tadqiq etgan G.J.Tulenova, B.Husanov, O.G'aybullayev, A.Aymatov, Sh.Negmatova, R.Ro'ziyevalarning ilmiy ishlarida yoshlarning iqtisodiy manfaat va ehtiyojlari muammolari misolida yoritilgan. Yoshlarning iqtisodiy faolligi F.Primov, Y.Ernazarova, Sh.Quvondiqov, J.Mavlyanov, Sh.Azamatovlarning ilmiy kuzatishlarda aks etgan.

MDH mamlakatlarida G.P.Voshanova, G.S.Godzina, L.G.Golovach, V.YE.Savchenko, D.Saxal, D.I.Kokurin, O.A.Latuxa, A.D.Sheremet, Y.V.Sherbinina kabi tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu tadqiqotchilar diqqatini posttotalitar tuzumdan keyingi ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, tizimli transformatsiya jarayonlari, insonning iqtisodiy huquq va erkinliklarini milliy zaminlarda ro'yobga chiqarish, biznes va tadbirdorlikni rivojlantirish, innovatsiyaning ilmiy texnik va jamiyat taraqqiyotiga oid masalalar o'rganilgan. Ulardagi ilmiy nazariy va ijtimoiy falsafiy xulosalar, tahlil usullari, sotsiometrik kuzatuvlar bizning izlanishlarimiz uchun ham muhim.

Xorijlik olimlardan E.Porter, E.Maykl, K.Y.Totyev, A.Y.Yudanov, G.L.Azoyev, A.P.Gradov, M.V.Konotopov, R.A.Fatxutdinov, A.Y.Kibanov hamraqobat jarayonini sog'lomlashtirishning ayrim masalalarini o'rganganlar.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fikrning o'zgarishi, qarashlarni transformatsiyaga uchrash holati avvalo yoshlarda namoyon bo'lmoqda. Bu borada "o'ychning o'yi bitguncha tavakkalchining ishi bitadi", - degan tamoyil yoshlardan faollashib ulgurgan. Jamiyatning qadriyatlari qatlami (asosan axloqiy qadriyatlari) va shunga mos ravishda yoshlarning axloqiy qadriyati tizimida "sog'lom raqobat" axloqi shakllanmoqda. Raqobat – o'rnini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan axloqiy qadriyatlarni boshqaruvchi, rivojlantiruvchi rag'batdir. Raqobatning ontologik va gnoseologik tabiatini to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borgan Sh.Negmatovaning fikricha, "raqobat to'g'risidagi qarashlarni mantiqiy umumlashtirilsa, u holda mazkur tushuncha uch xil talqin qilinganligining guvohi bo'lismiz mumkin. Birinchisi, raqobatni muomala nuqtai nazardan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat bu xaridorlarning o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun ko'proq pul topish uchun kurashishdir. Ikkinchisi, strukturaviy jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat –bozorda yaratilgan shart-sharoitlar tufayli sotuvchi va xaridorning unda erkin harakat qilish darajasidir. Uchinchisi, raqobatni funksional jihatdan talqin qilish bo'lib, unga ko'ra raqobat – eski bilan yangi, innovatsiyalar o'tasida bellashuv bo'lib, yashiringan narsalarning ko'zga tashlanib aniq bo'lib qolishdir". Tadqiqotchi o'z fikrini rivojlantirib aytadiki, raqobatning ontologik va gnoseologik tabiatini aniqlash uchun tabiatdagi, inson borlig'idagi, ma'naviy borliqdagagi, sotsial borliqdagagi raqobatni farqlash kerakligini ta'kidlaydi.

Hozirgi davrda O'zbekistonning qadriyatlari qatlami o'z ichida turli davrlarda shakllangan va hozirgi kunda ham saqlanib qolayotgan uch xil qadriyatni kuzatish mumkin. Milliy ana'anaviy axloqiy qadriyatlari, sobiq sho'rolar davrida shakllangan qadriyatlari va demokratik tamoyillar, liberallashish natijasida paydo bo'lgan qadriyatlari. Shu mavjud qadriyatlari iqtisodiy faollashishga turli darajada ta'sir o'tkazadi. Birinchi turdagani qadriyatlari oddiy inson, uyushmagan yoshlari, aholi o'tasida keng tarqalgan bo'lib, "tishini bergen rizqini beradi" tamoyiliga amal qiladi. Ikkinci turdagani qadriyatlari bilan mustahkamlangan kuchli sterotiplar mavjudki, ularning o'zgarishi, zamonga qarab o'zgarishi mutloq qiyin kechadigan jarayondir. Bundaylar faollashgan qadriyatlarga, ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy faolligiga to'siq bo'lish hollari kuzatiladi. Uchinchi turdagani qadriyatlari mustaqillik natijasida yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qadriyatlarni aks ettirib, ko'proq foydali, samarali qadriyatlari bilan ish ko'radigan yoshlari o'tasida keng tarqalgan. Yangi axloqiy qadriyatlari faollashishga yo'l ochib, yangi impuls berishi bilan bir qatorda bir qator axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. YA'ni, axloqning insonpavarlik, xalqparvarlik tamoyillari, halollik singari meyorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan odatlari shakllanishi mumkin. Ishbilarmonlik, tadbirdorlik individualizmning shakllanishiga yoki aksincha ta'siri mavjud bo'lishi mumkinmi? Yoshlarning iqtisodiy faolligida insonpavarlik, sabr-toqat, ishonch, birdamlik singari axloqiy tamoyillarga o'rinn bormi? Ushbu savollarga javob topish uchun Farg'ona davlat universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishining 3-kurs talabalaridan sotsiologik so'rovnama olindi. Ularga quyidagi savollar berildi: "Biznesda halollik foyda keltiradimi?", "Axloq, xulq va tadbirdorlik o'zaro aloqador tushunchalarimi?". Birinchi savolga 33%, ikkinchi savolga 21% talabalar ijobji "ha" deb javob berganlar.

Asrlar osha shakllanib kelgan axloqiy qadriyatlari tabiat, jamiyat va inson hayotida ijobji

o'zgarishlar, farovon hayotni taminlay olgan bo'lib, yangi qadriyatlar transformatsiyasida ularning asl ma'nosini o'zgartirmasdan olib o'tish zarur. Chunki "bozor iqtisodiyoti va ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bir-biriga zid, antipod hodisalardir. Bozor iqtisodiyoti faoliyatni erkin, bozor talablariga va xaridor ehtiyojlariga muvofiq olib borishni taqozo etadi. Erkin faoliyat ham, xaridor ehtiyoji ham bozor munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi, rivojlantiruvchi qadriatlardir. Mazkur ikki qadriyat yo'q joyda bozor munosabatlari ma'muriy – buyruqbozlik boshqarish usuliga aylanadi".

Yoshlarning iqtisodiy faollashishi, o'z navbatida, yuqorida ta'kidlanganidek ijobjiy va salbiy xususiyatlarni kasb etishi mumkin. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyati amaldagi qonunlar bilan tartibga solingan va tadbirkorlik huquqlari davlat himoyasidadir. "... tadbirkorlik faoliyati shunchaki oddiy xo'jalik faoliyati emas, mulkiy foyda ko'rishni ko'zlaydigan tashabbuskorlik va tavakkalchilikka asoslangan faoliyatdir. Mulkiy foyda ko'rish maqsadi esa ko'p hollarda tadbirkorlik subyektining amaliy faoliyatida ifodalanadigan salbiy xulq-atvori shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Foya ketidan quvish, kam xarj evaziga ko'proq foydaga erishish maqsadi, o'z navbatida, davlat tomonidan joriy etilgan qonunlarni chetlab o'tishga undaydi". Shuning uchun tadbirkorlikni, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, sog'lom raqobat muhitini saqlab qolish singari huquqiy-me'yoriy qonunchilik bazasi shakllantirilib, "...so'nggi uch yilda mamlakatimizda xususiy mulk mavqeini oshirish hamda uni himoya qilish, ishbilarmonlik muhiti va biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan o'n beshdan ortiq qonun, jumladan, "xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolati to'g'risida (yangi tahrir)", "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida", "Raqobat to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" va boshqa qonunlar qabul qilingan bo'lib, bular iqtisodiy faollikning rivojlanishida axloqiy immanent belgi sifatida namoyon bo'ladi.

Yoshlar iqtisodiy faolligini nazorat qilish jarayonida ommaviy va xususiy manfaatlar to'qnashuvi kuzatiladi. Bunda, bir tomonidan, davlat organlari tadbirkorlik faoliyatini nazorat qilish orqali soliq tushumini ko'paytirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning hayoti va sog'ligini, jamoat tartibi va xavfsizligini hamda tabiiy muhit va ekologiyani muhofaza qilishni ta'minlaydi. Ikkinci tomonдан esa, yoshlar tadbirkorlik subyekti sifatida imkon qadar erkin bo'lishi, xo'jalik yuritish faoliyatini davlatning ommaviy-imperativ ta'sirlaridan holi bo'lgan holda amalga oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Zero, erkparvarlik axloqiy tamoyil sifatida iqtisodiy taraqqiyotning obyektiv qonunlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy faol yoshlar – o'z ishining ustasi, epchil, uddaburon shaxslar bo'lib, o'z sohasida ishbilarmon insonlardir. Xalqimiz iborasi bilan aytganda, bunday shaxs ishning ko'zini biladi, faoliyatiga to'g'anoq bo'lib turgan to'siqlarni engib o'tishning uddasidan chiqqa oladi, aqliy mehnat qilib, ko'p foyda olishning samarasidan xabardor bo'ladi. Ushbu fazilatlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, iqtisodiy faol yoshlar - tavakkal qilib ish ko'rishga moyil insonlardir. Yoshlarda tavakkalchilik, o'z navbatida, unda mardlik, tantilik, qo'lli ochiqlik, jo'mardlik, mehr-muruvvatilik histuyg'ularini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham, qadimda ishbilarmon va tadbirkor odamlar xalqimiz tomonidan doimo e'zozu ikrom qilingan, hurmati joyiga qo'yilgan, hatto, og'zaki ijod namunalarida bu kabi uddaburon, epchil va hozirjavob, mardlik namunasi bo'lgan kishilarning jonli badiiy obrazlari yaratilgan. "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir" - deb yozadi Amir Temur. Yuqoridagi tahlillardan ma'lumki, tadbirkor bo'lish, ishbilarmon bo'lisch va umuman, faol inson bo'lisch o'tmish axloqiy tafakkurda mavjud bo'lib, yoshlarning iqtisodiy faol inson bo'lishida dinamik kuch sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosatining asosiy maqsadi "demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrلaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqr bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatlari, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish", faol mehnat qiluvchi, iqtisodiy faol, tadbirkor avlodni yaratish va shu asosda haqiqiy mulkdorlarning qatlamini shakllantirishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ana shu maqsadga qaratilgandir. Bu vazifalarni hal etmasdan, kutilgan natijalarga, ijtimoiy hayotimizda, iqtisodiyotimizda kutilgan o'zgarishlarga erishib bo'lmaydi. Mulkdorlar toifasining iqtisodiy asosini xususiy mulk tashkil etadi. Xususiy mulk muqaddas va daxlsizdir, u bozor iqtisodiyoti samaradorligining asosidir. Mulk egaligisiz iqtisodiy faoliyat erkinligini amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli davlatimiz tomonidan xususiy mulkning himoya tizimini yaratish vazifasi qo'yildi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Андерсон Ж. Пространство, время и категории: Лекции по метафизике 1949-1950. - Сидней Университет Пресс, 2007
2. Qodirova Z.R va boshqalar. Yoshlar ijtimoiy faoliigi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. –T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2006.-175-bet.
3. Negmatova Sh. Raqobatning ontologik tabiatи va gnoseologik xususiyatlari // Imom Buxoriy saboqlari jurnali. 2017, 1-son, 92-bet.
4. Norqulov S. D. Fuqarolik jamiyatи va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari. Monografiya. – T.: Navro'z, 2015.-93-bet.
5. Primov F. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini nazorat qilishni optimallashtirish istiqbollari. // Ijtimoiy fikr- inson huquqlari. № 3, 2016.-44-bet.
6. Ro'zieva R. Jamiatuning ma'naviy yangilanishi: milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi. –Toshkent: Falsafa va huquq inst.nashr., 2011.-108-bet.
7. Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy – falsafiy tahlili): fal.fan.dok-ri. diss. –T., 2006.-79-bet.